



**WAYS OF DEVELOPING PEDAGOGICAL ABILITIES.
CONCEPT OF COMMUNICATION.**

Student of Termiz State Pedagogical Institute

Saidjonova Dilshoda Durimboy Qizi

dilshodasaidjonova0@gmail.com

Abstract: This article highlights the concept of pedagogical ability, its significance in a teacher's professional activity, and the ways of its formation. The essence of communicative ability, which is one of the main components of pedagogical skill, is revealed. The importance of organizing effective communication between teachers and students, speech culture, empathy, listening, and influencing skills in the process of pedagogical communication is analyzed. Self-analysis, reflection, practical exercises, and the use of innovative methods are shown as important factors in the development of pedagogical abilities.

Keywords: Pedagogical ability, communication, pedagogical interaction, professional competence, speech culture, empathy, reflection.

**PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.
KOMMINIKATSIYA HAQIDA TUSHUNCHA.**

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI

Saidjonova Dilshoda Durimboy Qizi

dilshodasaidjonova0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur mavzuda pedagogik qobiliyat tushunchasi, uning o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati hamda shakllantirish yo'llari yoritilgan. Pedagogik qobiliyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kommunikativ qobiliyatning mohiyati ochib berilgan. Pedagogik kommunikatsiya jarayonida o'qituvchi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi samarali muloqotni tashkil etish, nutq madaniyati, empatiya, tinglash va ta'sir ko'rsatish ko'nikmalarining ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishda o'z-o'zini tahlil qilish, refleksiya, amaliy





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

mashg'ulotlar va innovatsion metodlardan foydalanish muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik qobiliyat, kommunikatsiya, pedagogik muloqot, kasbiy kompetensiya, nutq madaniyati, empatiya, refleksiya.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining bilishga oid qiziqishlari ko'p qirrali qiyofalarda namoyon bo'ladi: o'quvchini harakatchan va qiziquvchanligi, o'quvchining ayrim o'quv faoliyatiga shuningdek, umuman o'qishga bo'lgan motivlari, o'quvchi shaxsining o'ziga xos belgilari va uning yo'nalishini qaror topishi ana shular jumlasidandir. O'quvchi yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. Shuning uchun ham K.D.Ushinskiy "zo'rlash va majburlashga asoslangan o'qitish" o'quvchining aqliy rivojlanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmasligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar o'quvchilar o'quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsning shakllantiruvchi (O'quvchining nazariy fikri, o'qish faoliyatini o'quvchi shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o'zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo'ladi. O'quvchilarning o'qishga (bilishga) bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o'qituvchi ularni darsda o'quvchilarda shakllantirish uchun nima qilishi kerak? O'quv faoliyatini faollashtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak? Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "aktyor" emas, aksincha "rejissor" bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchi-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchini turli vaziyatlarda to'g'ri fikr yurita olish, fikrlarni taqqoslay olish, taxlil etish, muxokama yuritish, o'z fikrini ma'lum bir tizimda ifodalay olish ko'nikmalarini hosil qilishda faqat bir xil o'qitish metodidan foydalanmay, o'qitish metodlarini o'zaro aloqada qo'llashni taqozo etadi. Mohir





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

o'qituvchi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir: O'quvchilarni bilishga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda o'quvchi faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni "kashf etish"ga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi. 50 O'quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi. Fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini o'quvchilarga anglatish juda zarurdir. O'tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko'proq bog'lab tushuntirilsa, u o'quvchilarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O'quv materialini o'quvchilarni qiziqtiradigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham, ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi. O'rtacha qiyinlikdagi o'quv materialini ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otmaydi. O'quv materialini bir qiyinroq, lekin o'quvchilar kuchi yetadigan bo'lishi kerak. O'quvchilar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularni fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'qituvchining zavqlanib gapirishi ham o'quvchiga, uni fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi ta'riflarda pedagogik boshqaruv mahoratining qaysi jihati yaqqol ko'zga tashlanadi? Pedagogik boshqaruv mahorati o'qituvchilar tomonidan o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. O'quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsa-da, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondashishni talab qiladi. O'quvchilik faoliyatining obyektini tarkibi va o'ziga xosligi uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondashishini taqozo qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiyasi ham, ijodiy yondashish ham barbod bo'ladi.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Kommunikatsiya (lot. communicatio – umumlashtiraman, bog‘layman) Kommunikatsiyalar mavjud. Jismoniy nuqtayi nazardan yondoshiladigan Kommunikatsiyani aloqa ham deb ataladi. “Kommunikatsiya” atamasi fanga XX asrning boshida kirib kelgan. “Kommunikatsiya” lotincha communicatio, communico so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bog‘layman, muloqot qilaman manolarini anglatadi. Ijtimoiy fanlarda kommunikatsiya birgalikda harakat qilish, o‘zaro tasir haqidagi ilmiy bilim sohasi hamda ushbu jarayonlar va ularning natijalarini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Kommunikatsiya muammolariga tadqiqotchilar, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin qiziq boshlashdi yillar boshida falsafa va sotsiologiya ilmiy adabiyotlarida kommunikatsiya tushunchasining yuzdan ortiq ta’rifi yuzaga keldi. Masalan:

1. “Kommunikatsiya” – bu murakkab dinamik tizimlar va uning axborotni qabul qilish, to‘plash, o‘zgartirish imkoniga ega qismlari o‘rtasida axborot almashinuvi”.
2. “Kommunikatsiya” – bu axborotni o‘ziga xos almashish, uning emotsional va intellektual mazmunini aks ettirish jarayoni.
3. “Kommunikatsiya” – insonlarning kognitiv (kognitiv – shaxsning tashqi ma’lumotni aqliy idrok etish va qayta ishlash qobiliyatini bildiruvchi atama) va mehnat faoliyati jarayonida o‘zaro munosabatlarga kirishishining o‘ziga xos shakli”.
4. “Kommunikatsiya” – noverbal va verbal harakatlar natijasida axborot olish.

Kommunikatsiyaning tarixiy taraqqiyoti

Kanadalik sotsiolog Marshal Maklyuen fikricha, kommunikatsiya usulining almashishi tarixning rivojlanish bosqichlarini ifoda etadi. Shunga ko‘ra u insoniyat rivojlanishning quyidagi davrlarini ajratgan: og‘zaki kommunikatsiya (bu davrda jamoa Qobiliyat Sa’diy Sheroziyning ikkita talabasi bor ekan. Biri imtihondan o‘tibdi, boshqasi yiqilibdi. Omadsiz shogirdning otasi ustozdan xafa bo‘lib debdi: - Siz ikkoviga bir xil ilm berganmisiz, axir? Nimaga mening o‘g‘lim imtihondan yiqildi? Shayx Sa’diy esa xotirjamlik bilan: - Ta’lim bir, qobiliyat har xil, - degan ekan. doirasida kommunikativ



muhit kommunikantlarni bevosita har tomonlama qamrab olgan); yozma kommunikatsiya (yolgʻon xabarlar vaqt va makon toʻsiqlarini kesib otgan); nashr-kommunikatsiya (kommunikantlarni yalpi qamrab olishning oshishi, “Gettenberg galaktikasi”ning yaratilishi, yani bosma kitoblar chop etish texnologiyasining ixtiro qilinishi); multimedia kommunikatsiyasi (bevosita muloqotga global miqyosda kirishish). Kommunikatsiya tadqiqotlari kommunikatsiya muammolarini gumanitar, tabiiy va texnik fanlar vakillari tadqiq qilishadi. Faqat insonlararo emas, balki hayvonlararo, kompyuterlararo, “inson-mashina” va aloqa tizimlarida axborot almashinuvini oʻrganuvchi fanlarning vakillari – kibernetiklar, biologlar, etologlar, semiotiklar axborot almashinuvini kommunikatsiya deb ataydilar. Shuningdek, XX asrning 60-yillarida amerikalik sotsiologlar (Lazarsfeld, Lippman, Lassuell, Merton, Maklyuen va boshqalar) oʻz tadqiqotlarida “ommaviy kommunikatsiya” atamasini ham qoʻllay boshladilar. Shu tariqa, kommunikatsiya nazariyasi mustaqil fan sifatida shakllanib borib, oʻzining predmeti, kategoriyalar apparati, oʻz qonuni va tarixiga ega boʻldi. Kommunikatsiya nazariyasi axborot almashinuvining universal mexanizmlari va qonuniyatlarini oʻrganadi. Shuningdek, uning ommaviy kommunikatsiya nazariyasi, shaxslararo kommunikatsiya nazariyasi kabi tarmoqlari ham mavjud.

Kommunikatsiya shartlari Kommunikatsiyani amalga oshirish imkoniyati muayyan shartlar bajarilgandagina paydo boʻladi. Ular quyidagilar: kommunikativ jarayon uchun kamida ikki tomonning ishtiroki zarur; kommunikatsiya doimo teskari aloqa tamoyiliga tayanadi; kommunikatsiya maʼlum belgilar tizimisiz amalga oshirilmaydi. Har qanday nazariyada boʻlganidek, kommunikatsiya nazariyasi ham “axborot”, “kommunikatsiya”, “axborot almashinuvi”, “kommunikativ makon” kabi oʻziga xos tushunchalari (kategoriyalari) ga ega. M. Veber, G. Gadamer, G. Shpetler ilgari surgan kommunikatsiya modelida kommunikatsiyaning asosiy natijasi bu insonning boshqa inson tomonidan tushunilishi, oʻzaro tushunish deb ataladi. Kommunikatsiya - bu oʻziga xos axborot almashinuvi boʻlib, uning natijasida joʻnatuvchidan qabul



qiluvchiga intellektual va emotsional axborotni uzatish jarayoni kechadi. Kommunikativ jarayonning turli modellari mavjud. Misol uchun, Aristotel kommunikatsiya jarayonining uchta (notiq – nutq – auditoriya) komponentini ajratgan bo‘lsa, zamonaviy variantda u “kommunikator – xabar – kommunikant” ko‘rinishiga ega. Kommunikatsiya va muloqotning farqlari qator qomusiy va izohli lug‘atlarda “kommunikatsiya” atamasi “xabar y o‘li, muloqot” deb talqin qilingan. Taniqli faylasuf M.S.Kagan fikricha, kommunikatsiya va muloqot kamida ikki jihatdan farqlanadi. Birinchidan, “muloqot amaliy, moddiy va manaviy axborot almashinuvidir va u amaliymanaviy xarakterga ega, kommunikatsiya esa u yoki bu xabarlarini uzatish bilan bog‘liq sof axborot jarayonidir”. Ikkinchidan, ular o‘zaro munosabatga kirishayotgan tizimlarning aloqa xossalari bo‘yicha birbiridan ajralib turadi. Kommunikatsiya subyekt-obyekt aloqasi bo‘lib, unda subyekt ma’lum axborotni uzatadi, obyekt esa axborotning passiv qabul qiluvchi sifatida namoyon bo‘ladi, uning vazifasi axborotni qabul qilish, tushunish, yaxshi anglash va shu axborotni inobatga olib, harakatlanishdan iborat. Shunday qilib, M.S.Kagan fikricha, kommunikatsiya bir tomonga yo‘naltirilgan jarayondir. Muloqot esa, aksincha, subyekt-subyekt aloqasi bo‘lib, unda “xabarlar jo‘natuvchisi va qabul qiluvchilar yo‘q, balki suhbatdoshlar, umumiy faoliyat ishtirokchilari bor”. Muloqotda axborot sheriklar o‘rtasida harakatlanadi, demak, muloqot jarayoni kommunikatsiyadan farqli ravishda ikki tomonlama y o‘naltirilganlik xarakteriga ega.

Muloqot insonlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish va taminlashga qaratilgan hamda, birinchi navbatda, verbal, yani til (nutq yoki matn) yordamida amalga oshiriladigan o‘ziga xos axborot almashinuvi jarayonlarini bildiradi. Inson muloqotda shakllanadi, rivojlanadi va shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy muloqotda ruhiyat taraqqiy etadi va individ o‘zini hayotga joriy etadi. Ruhij jihatdan rivojlangan odamlar bilan muloqotda bo‘lish orqali, ilm olishga bo‘lgan keng imkoniyatlar evaziga inson o‘zining barcha yuksak qobiliyat va sifatlarini egallab borib, shaxsga aylanadi. Muloqot – verbal axborot almashinuv jarayoni. Muloqot va kommunikatsiya muloqot





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

tushunchasini kommunikatsiya tushunchasidan farqlash lozim. Kommunikatsiya jonli va jonsiz tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, daraxtlardagi irsiy belgilarning kuzatilishi, insonning turli-tuman texnik vositalar bilan aloqaga kirishishi – bularning barchasi kommunikatsiya hisoblanadi. Muloqot faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo'lish jarayonida ijtimoiylashib, shaxsga aylanib boradi.

Muloqotning vazifalari B.F.Lomov va L.A.Karpenkning fikricha, muloqotning 3 xil vazifasi mavjud:

1. Kommunikativ (axborot uzatish) vazifa. Muloqotning kommunikativ jihatida individlarning o'zaro malumot almashinishi sodir bo'ladi.

2. Interaktiv (hamkorlikda harakat qilish) vazifa. Muloqotning interaktiv jihatida individlar nafaqat bilim va g'oyalar, balki harakatlar bilan ham o'zaro ta'sirni amalga oshiradilar.

3. Perseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) vazifa.

Muloqotning perseptiv jihati muloqot jarayonida o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir, yani muloqotning ushbu jihatida bir kishining ikkinchi kishi tomonidan idrok qilinishi, tushunilishi, baholanishi kuzatiladi.

Muloqot – bu birinchi navbatda axborot bilan bog'liq noyob hodisa, o'ziga xos axborot jarayonidir. Umuman olganda, axborot jarayonlari axborotni qabul qilish, saralash, saqlash, uzatish va boshqalardan iborat ijtimoiy jarayonlardir. Axborot jarayonlari butun jamiyat organizmini qurshab olib, barcha ijtimoiy tizimlarni qamraganligi, ijtimoiy hayotning har qanday, hatto, eng kichik qismida ham mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Muloqot turlari – Boshqariladigan muloqot suhbatdoshning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullarni (xushomad, qo'rqitish, aldov va boshqalar) qo'llagan holda undan foyda olishga qaratilgan.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Jo‘rayev R.X., To‘xtaxodjayeva M.X. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Leontyev A.A. Pedagogicheskoe obshchenie. – Moskva: Znanie, 2017.
4. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya. – Moskva, 2016.
5. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2018.

